INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA PRESUPPOZITSIYANING PRAGMATIK FUNKSIYALARI: QIYOSIY TAHLIL

Turdiyeva Nilufar Anvarovna
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: nturdiyeva8229@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23274057

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida presuppozitsiyaning pragmatik tabiati, shakllanish vositalari hamda kommunikativ funksiyalari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Maqolada presuppozitsiyaning semantik va pragmatik talqinlari, presuppozitsiya triggerlari, ularning kontekst bilan munosabati hamda presuppozitsiyaning nutqdagi kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridan olingan misollar asosida presuppozitsiyaning universal va milliy-lisoniy xususiyatlari aniqlanadi. Presuppozitsiya mavzusi tilshunoslikda keng o‘rganilmagan. Maqolaning dolzarbligi shundaki, presuppozitsiya mavzusi atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada presuppozitsiyaning pragmatik funksiyalari ham sanab o‘tilgan. Maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotidan misollar ham keltirilganligi maqolaning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, pragmatika, semantika, presuppozitsiya triggeri, kontekst, yashirin ma’no, kommunikativ funksiya, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительное исследование прагматической природы, средств образования и коммуникативных функций пресуппозиции в английском и узбекском языках. Анализируются семантические и прагматические интерпретации пресуппозиции, триггеры пресуппозиции, их связь с контекстом, а также коммуникативные функции пресуппозиции в речи. На примерах из английского и узбекского языков определены универсальные и национально-лингвистические особенности пресуппозиции. Тема пресуппозиции не получила широкого изучения в лингвистике. Актуальность статьи заключается в том, что тема пресуппозиции изучена подробно. В статье также перечислены прагматические функции пресуппозиции. Дополнительную актуальность статьи придает тот факт, что в ней приводятся примеры из английской и узбекской литературы.

Ключевые слова: пресуппозиция, прагматика, семантика, триггер пресуппозиции, контекст, скрытый смысл, коммуникативная функция, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ.

Annotation: This article comparatively studies the pragmatic nature, means of formation, and communicative functions of presupposition in English and Uzbek. The article analyzes the semantic and pragmatic interpretations of presupposition, presupposition triggers, their relationship with context, and the communicative functions of presupposition in speech. Based on examples from English and Uzbek, the universal and national-linguistic features of presupposition are determined. The topic of presupposition has not been widely studied in linguistics. The relevance of the article is that the topic of presupposition has been studied in detail. The article also lists the pragmatic functions of presupposition.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

The fact that the article also provides examples from English and Uzbek literature further increases the relevance of the article.

Key words: presupposition, pragmatics, semantics, presupposition trigger, context, hidden meaning, communicative function, English language, Uzbek language, comparative analysis.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining faqat strukturaviy va semantik xususiyatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, ularning real kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanishi, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va tinglovchining mazmunni interpretatsiya qilish jarayoniga ham katta e’tibor berilmoqda. Mazkur masalalar pragmatikaning asosiy tadqiqot obyektlarini tashkil etadi. Taniqli tilshunos olim George Yule pragmatikani til birliklarining kontekstda qanday talqin qilinishini o‘rganuvchi soha sifatida izohlaydi va presuppozitsiyani pragmatik tahlilning muhim kategoriyalaridan biri sifatida ko‘rsatadi. [8: 33]

Ingliz va o‘zbek tillarida **presuppozitsiya** (oldingi taxmin, yashirin axborot) nutq jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi umumiy bilim, kontekst hamda muloqot vaziyatiga tayanib, gapning pragmatik ma’nosini shakllantiradi. “Presuppozitsiya” atamasi odatda biror gap yoki nutq birligi orqali bevosita bildirilmagan, biroq uning mazmunini to‘g‘ri tushunish uchun so‘zlovchi tomonidan oldindan qabul qilinayotgan axborotni anglatadi. Olim George Yule presuppozitsiyani so‘zlovchining ma’lum bir gapni ifodalashdan oldin tinglovchiga ma’lum deb hisoblaydigan axboroti bilan bog‘laydi. [8: 30] Presuppozitsiyani aniqlashda muhim xususiyatlardan biri uning inkor ostida saqlanishidir. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So‘zlovchi ob’ektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Masalan: Mary has a dog. Mary doesn’t have a dog. Har ikki gapning asosiy mazmuni bir-biriga zid bo‘lsa-da, ikkala gapda ham “Mary has a dog” mazmuniga bog‘liq presuppozitsion munosabat ko‘rinadi.

Presuppozitsiya tushunchasi falsafiy mantiq va tilshunoslik tarixida uzoq vaqt davomida muhokama qilingan bo‘lsada, ushbu sohada o‘rganilishi kerak bo‘lgan ancha mavzular mavjud, albatta. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari bilan bog’liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko‘rinishini anglatadi. Bunday tashqi ishora tilda moddiy ifodachisiga ega bo‘lganda, presuppozitsiya lingvistik xususiyat kasb etadi. Bu jihatdan, lingvistik presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli.

Presuppozitsiyaning yashirin ifodalanish xususiyati uning gap tashqi strukturasi orqali ochiq ifodalanuvchi propozitsiya bilan qorishib ketmasligiga imkoniyat yaratadi. Tagma’no va tagbilim (presuppozitsiya) hodisalarini qiyoslab o‘rgangan olim M.Hakimov ham presuppozitsiyaning matn semantik implikaturasi birligi ekanini qayd etadi. [5: 33]

Presuppozitsiyaning yuzaga kelishida maxsus lingvistik vositalar — presuppozitsiya triggerlari muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy presuppozitsiya tadqiqotlarida definit artikllar, faktiv fe’llar va boshqa konstruksiyalar shunday triggerlar sifatida ko‘rsatiladi.

Ingliz tilida presuppozitsiya ko‘pincha leksik va grammatik birliklar orqali yuzaga keladi. Masalan, again, stop, continue, still, realize, regret, know kabi birliklar muayyan oldindan nazarda tutilgan ma’noni shakllantirishi mumkin. Misol uchun, John has stopped smoking. Ushbu gapning bevosita

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

mazmuni Jon chekishni to'xtatganligini bildiradi. Biroq gap tarkibidagi stopped fe'li Jon ilgari chekkan degan axborotni presuppozitsiya qiladi. Quyida ingliz adabiyotining yorqin namayodlarining asarlari keltirilgan misollar orqali davom ettiramiz.

"You must remember, old sport, she was very excited this afternoon." [4: 134]

Presuppozitsiya triggeri: **remember**. Bu misolda presuppozitsiya common-ground management funksiyasini bajaradi. So'zlovchi yangi ma'lumotni mutlaqo yangi fakt sifatida emas, balki suhbatdoshga ma'lum bo'lishi kerak bo'lgan axborot sifatida taqdim etadi. Shu sababli remember kognitiv va pragmatik jihatdan oldingi kontekstni faollashtiruvchi trigger hisoblanadi.

"My dear Mr. Bennet, you must know that I am thinking of his marrying one of them." [6: 3]

Presuppozitsiya triggeri: **must know**. Must know konstruksiyasi Mr. Bennet muayyan vaziyat haqida xabardor bo'lishi kerakligini anglatadi. Mrs. Bennet yangi ma'lumotni bevosita tushuntirishdan ko'ra, uni erining oldindan anglab yetishi kerak bo'lgan holat sifatida taqdim etadi. Bu presuppozitsiya personajning talabchan va kinoyali kommunikativ uslubini ham ochib beradi.

"As I never saw my father or my mother…" [2: 1]

Presuppozitsiya triggeri: **never.** Never vaqt davomida biror hodisaning biror marta ham sodir bo'lmaganligini presuppozitsiya qiladi. Bu yerda presuppozitsiya Pipning oilaviy holati haqida fon ma'lumotini beradi. Dickens undan foydalanib, qahramonning keyingi dunyoqarashi va o'zligini shakllantiruvchi biografik backgroundni juda ixcham tarzda faollashtiradi.

O'zbek tilida yuklamalar va ravishlar, xususan, „yana", „ham", „hali", „endi" kabi birliklar presuppozitsion ma'noni ifodalashda faol ishlatiladi. Ingliz tilida esa bu vazifa ko'pincha maxsus leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar orqali amalga oshiriladi. Quyida o'zbek adabiyotining yorqin namayodlarining asarlari keltirilgan misollar orqali davom ettiramiz.

„O'zingiz bilasiz, boshimdan o'tgani uchun aytaman." [3: 156]

Presuppozitsiya triggeri: **bilasiz.** Bu yerda so'zlovchi o'z fikrini suhbatdoshga tanish yoki avvaldan ma'lum bo'lgan holatga tayangan holda asoslaydi.

"Bobur ... o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi." [7: 6]

Presuppozitsiya triggeri: **-ganida.** 'tirganida shakli voqeaning ma'lum bir vaqt nuqtasida sodir bo'lganligini fon sifatida belgilaydi. Bu konstruksiya Boburning yoshligi va siyosiy mas'uliyati o'rtasidagi kontrastni faollashtiradi. Shu sababli presuppozitsiya bu yerda temporal va kognitiv-pragmatik funksiya bajaradi: o'quvchi keyingi voqealarni Boburning juda yosh hukmdor bo'lganligi haqidagi fon bilim bilan qabul qiladi.

"Yillar o'tgani sari mazkur asar har gal o'quvchini qaysi jihati bilandir ilhomlantiradi." [1: 3]

Presuppozitsiya triggeri: **yillar o'tgani sari.** Yillar o'tgani sari temporal presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. U o'quvchini asarning hozirgi qabul qilinishini uning avvalgi mavjudligi bilan bog'lashga majbur qiladi. Shunday qilib, temporal presuppozitsiya oddiy vaqt munosabatidan tashqari baholovchi va argumentativ pragmatik funksiya bajaradi: asarning badiiy qiymati vaqt sinovidan o'tgan degan xulosani kuchaytiradi

Ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish presuppozitsiyaning universal va milliy-lisoniy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikkala tilda ham presuppozitsiya ko'pincha leksik birliklar, fe'l shakllari, bog'lovchi va yuklamalar, ayrim sintaktik konstruksiyalar hamda kontekst orqali yuzaga keladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shuningdek, presuppozitsiyani to'g'ri anglashda kontekst va milliy-madaniy bilimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ikki til o'rtasidagi qiyosiy tahlil faqat grammatik shakllar bilan cheklanmasdan, kommunikativ va madaniy omillarni ham qamrab olishi lozim.

Presuppozitsiya muloqot jarayonida bir nechta muhim pragmatik funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u yashirin axborotni yetkazish imkonini beradi. So'zlovchi ayrim fikrlarni bevosita bildirmasdan, ularni tinglovchiga anglatishi mumkin. Ikkinchidan, presuppozitsiya kommunikativ iqtisodni ta'minlaydi. Suhbatdoshlar o'rtasida umumiy bilim mavjud bo'lsa, ushbu ma'lumotni qayta izohlash talab qilinmaydi. Uchinchidan, presuppozitsiya nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, reklama, siyosiy diskurs, jurnalistika va kundalik muloqotda presuppozitsiya tinglovchiga ma'lum fikrni tabiiy va bevosita bo'lmagan shaklda qabul qildirish imkonini beradi. "Have you stopped wasting your time?" Ushbu savolda „vaqtingni bekorga sarflash" ilgari sodir bo'lgan harakat sifatida presuppozitsiya qilinadi. Savol shaklan neytral ko'rinsa-da, unda tinglovchiga nisbatan ma'lum munosabat mavjud. O'zbek tilida esa quyidagicha tahlil qilish mumkin. „Siz yana kechikdingizmi?" Bu gapda „siz avval ham kechikkansiz" degan axborot „yana" so'zi orqali presuppozitsiya qilinadi. Demak, ingliz va o'zbek tillarida presuppozitsiya shakliy jihatdan turlicha ifodalansa-da, uning kommunikativ maqsadi ko'p hollarda umumiy xarakterga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, presuppozitsiya ingliz va o'zbek tillarida pragmatik ma'no hosil qilishning muhim vositalaridan biridir. Uning asosiy mohiyati gapda bevosita ifodalanmagan, biroq so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muayyan darajada umumiy yoki oldindan qabul qilingan axborotni kommunikativ jarayonga kiritishdan iborat. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida presuppozitsiyaning kommunikativ tabiati va asosiy pragmatik funksiyalari ko'p jihatdan o'xshash. Biroq uning lingvistik ifodalanish vositalari tillarning grammatik va leksik tizimiga ko'ra farqlanadi. Presuppozitsiya, ayniqsa, yashirin axborotni yetkazish, kommunikativ iqtisod, kontekstni faollashtirish, so'zlovchi munosabatini ifodalash va tinglovchiga pragmatik ta'sir ko'rsatish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu sababli ingliz va o'zbek tillarida presuppozitsiyani qiyosiy-pragmatik tadqiq etish ikki tilning nafaqat strukturaviy, balki kommunikativ va kognitiv xususiyatlarini ham chuqurroq ochib berishga imkon beradi.

Foydalingan adabiyotlar.

1. Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon, Toshkent: „Yoshlar nashriyot uyi", 2019. — 328 b.
2. Charles Dickens, Great Expectations, London: Chapman and Hall, 1861. - 1039 b.
3. Cho'lpon, Kecha va kunduz, Nashr: Toshkent: „Sharq", 2000. — 288 b.
4. F. Scott. The Great Gatsby, New York: Scribner, 2004. — 180 b/
5. Hakimov M. Tag ma'no va tag bilim xususida ba'zi mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 2001. - №1— 34 b.
6. Jane Austen, Pride and Prejudice, London: Penguin Classics, 2002. — 448 b.
7. Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar, Toshkent: „Sharq", 2004. — 543 b.
8. Yule, G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.